

YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar-iyunida Qoraqalpog`iston Respublikasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o`rinlarda – YaHM) hajmi jorii narxlarda 8 959,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 0,7 % ga o'sdi. YaHM deflyator indeksi 2019-yil yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 110,3 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Qoraqalpog`iston Respublikasining qo'shgan hissasi 3,5 % ga yetdi.



Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		2019-yil yanvar- iyuniga nisbatan, % da
		2019-yil yanvar- iyun	2020-yil yanvar- iyun	
I. YaHM		8 073,0	8 959,4	100,7
<i>shu jumladan:</i>				
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	7 273,1	8 367,0	100,8
	Mahsulotlarga sof soliqlar	799,9	592,4	98,9
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	7 273,1	8 367,0	100,8
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 330,4	1 607,9	104,5
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	3 236,4	3 624,1	99,9
	sanoat	2 415,1	2 763,0	103,0
	qurilish	821,3	861,1	90,9
Xizmatlar		2 706,3	3 135,0	100,1

		Mld. so'm		2019-yil yanvar-iyuniga nisbatan, % da
		2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun	
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	415,4	453,2	97,1
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	489,3	511,0	99,5
	boshqa xizmat tarmoqlari	1 801,6	2 170,8	101,0

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 4 705,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko`rsatkich o`tgan yilning mos davriga nisbatan 0,8 % ga kamaygan.



Yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiyligi YaHMning 93,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 6,6 % ini tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 0,9 % punktga ko'paydi va hisobot yilida 19,2 % ni tashkil etdi. Sanoat tarmog'ining ulushi 33,0 % dan iborat bo'lib, 0,2 % ga kamaydi, qurilishni esa 1,0 % punktga tushdi va 10,3 % ga yetdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 37,5 % ni tashkil qildi va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 0,3 % punktga o'sdi.




**Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)**

		<i>2019- yil</i>	<i>2020- yil</i>
	I. YalM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	90,1	93,4
	Mahsulotlarga sof soliqlar	9,9	6,6
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	18,3	19,2
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	44,5	43,3
	sanoat	33,2	33,0
	qurilish	11,3	10,3
	Xizmatlar	37,2	37,5
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,7	5,4

		2019- yil	2020- yil
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,7	6,1
	boshqa xizmat tarmoqlari	24,8	26,0





**Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM
tarkibi (jamiga nisbatan % da)**



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog`liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 104,5 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 19,2 %), sanoatda – 103,0 % (33,0 %), xizmatlar sohasida – 100,1 % ni (37,5 %) tashkil etdi. Qurilishda esa o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda (90,9 %) kamayish kuzatildi. Xizmatlar sohasi tarkibida savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 97,1 % (5,4 %) kamayish, tashish va saqlash, axborot va aloqa 99,5 % (6,1 %) kamayish, boshqa xizmat tarmoqlarida 101,0 % osish (26,0 %) kuzatildi.



**Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**




2020-yilning yanvar-iyunida iqtisodiyotning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va sanoat tarmoqlari YaHMning mos ravishda 0,7 f.p. va 0,9 f.p. ga o'sishiga hissa qo'shdi. Qurilish tarmog'i - 0,9 f.p. salbiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning kamayishi hisobiga YaHM - 0,1 f.p. ga kamaydi.



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

**2020-yil yanvar-mart oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi
(jamiga nisbatan % da)**



2020-yil yanvar-iyunda YaHM deflyatori indeksi 2019-yil yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 110,3 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari Xizmatlarda – 115,7 %, Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 115,6 % va Qurilishda – 115,3 % qayd etildi.



**Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**

